



UDK: 81(5):81'276:001.8

*Xosiyatbonu MAXSUDOVA.,  
Andijon davlat chet tillari institute ingliz tili va adabiyoti kafedrasi doktoranti  
E-mail: tel902590718@mail.com  
AdCHTI dotsenti v.b, PhD N.Tursunova taqrizi asosida*

## TERMINOLOGY AND METHODOLOGY IN EASTERN LINGUISTICS: TRADITION AND MODERN APPROACHES

Abstract

This article analyzes terminology and methodology in Eastern linguistics from both historical and contemporary perspectives. Terminology is treated as a system of specialized units within a field, while methodology is understood as the theoretical foundation of scientific inquiry. Drawing on Indian, Chinese, Arabic, and Turkic traditions, the article examines how Eastern linguistic scholarship described, classified, and named language phenomena. Special attention is paid to Panini's grammar, the Arabic grammatical and lexicographical tradition, Mahmud Kashgari's comparative lexicographic practice, and modern corpus-based and digital annotation methods. The article argues for the importance of term standardization, multilingual glossaries, corpus verification, and digital work with historical sources in contemporary Oriental linguistics.

**Keywords:** Eastern linguistics, terminology, methodology, Panini, Sibawayh, Mahmud Kashgari, Arabic linguistics, Chinese philology, corpus linguistics, digital annotation.

## ТЕРМИНОЛОГИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ В ВОСТОЧНОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ: ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы терминологии и методологии в восточном языкознании в историческом и современном аспектах. Терминология трактуется как система специальных единиц определённой науки, а методология - как теоретическая основа научного исследования. На материале индийской, китайской, арабской и тюркской традиций анализируются механизмы описания, классификации и номинации языковых явлений. Особое внимание уделяется грамматике Панини, арабской грамматической и лексикографической традиции, труду Махмуда Кашгари, а также современным корпусным и цифровым методам анализа. Обосновывается необходимость стандартизации терминов, создания многоязычных глоссариев и цифровой обработки исторических источников в современном восточном языкознании.

**Ключевые слова:** восточное языкознание, терминология, методология, Панини, Сибавейх, Махмуд Кашгари, арабское языкознание, китайская филология, корпусная лингвистика, цифровая аннотация.

## SHARQ TILSHUNOSLIGIDA TERMINOLOGIYA VA METODOLOGIYA: AN'ANA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada sharq tilshunosligida terminologiya va metodologiya masalalari tarixiy va zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada terminologiya muayyan fan doirasidagi terminlar tizimi, metodologiya esa ilmiy tadqiqotning nazariy poydevori sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda hind, xitoy, arab va turkiy tilshunoslik an'analari misolida sharq ilmiy tafakkurida tilni tavsiflash, tasniflash va nomlash mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Paniniy grammatikasi, arab tilshunosligidagi Sibavayh va al-Xalil an'anasi, Mahmud Koshg'ariyning qiyosiy-lug'aviy tajribasi hamda zamonaviy korpus va raqamli annotatsiya metodlari sharq tilshunosligi metodologiyasining uzviy bosqichlari sifatida baholanadi. Maqolada, shuningdek, zamonaviy sharqshunoslik uchun terminlarni standartlashtirish, ko'p tilli glossariylar yaratish, matnlarni korpus asosida tekshirish va tarixiy manbalarni raqamlashtirish zarurati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** sharq tilshunosligi, terminologiya, metodologiya, Panini, Sibavayh, Mahmud Koshg'ariy, arab tilshunosligi, xitoy filologiyasi, korpus lingvistikasi, raqamli annotatsiya.

**Kirish.** Sharq tilshunosligi ko'p asrlik ilmiy tajriba, yozma meros va lingvistik kuzatishlar bilan shakllangan murakkab ilmiy maydondir. Bu sohada til faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki madaniyat, tafsir, yozuv, lug'at, mantiq va tafakkur bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida o'rganilgan. Britannica ma'lumotlariga ko'ra, g'arb an'anasidan tashqari eng muhim yevropaga oid bo'lmagan lingvistik an'analarda hind, xitoy va arab ilmiy maktablari ajralib turadi; xitoy filologiyasi ikki ming yildan ortiq tarixga ega bo'lib, asosan fonetika, yozuv va lug'atshunoslikka tayangan, hind tilshunosligi esa Panini grammatikasi bilan yuksak nazariy darajaga ko'tarilgan. Shu jihatdan sharq tilshunosligini

metodologik va terminologik nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish bugungi lingvistika uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega[1]. Mazkur maqolaning maqsadi sharq tilshunosligida terminologiya va metodologiya masalalarining tarixiy ildizlari, shakllanish mexanizmlari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlarini yoritishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tilshunoslikda terminologiya muayyan fan yoki soha doirasidagi terminlar majmui sifatida tushuniladi, termin esa maxsus ilmiy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi sifatida talqin qilinadi. Hamidulla Dadaboyev terminologiya fan tilining muhim qatlami ekanini, terminlar esa maxsus tushunchalarni

aniq ifodalash, ilmiy tasnif va mantiqiy farqlash vazifasini bajarishini qayd etadi. Shu manbada terminning substansional, funksional, derivatsion, semantik va pragmatik talqinlari mavjudligi ko'rsatilgan. Bu hol terminologiyani shunchaki lug'at boyligi emas, balki ilmiy tafakkurni uyushtiruvchi tizim sifatida anglash zarurligini ko'rsatadi[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sharq tilshunosligida metodologiya, avvalo, matnga tayanuvchi va manbani markazga qo'yuvchi an'ana sifatida shakllangan. Hind an'anasida qoidaviy va formal model, xitoy an'anasida grafika va leksikografiya, arab an'anasida grammatik va lug'aviy sistemalashtirish, turkiy an'anada esa qiyosiy-lug'aviy kuzatuv ustuvor bo'lgan. Bularning barchasini umumlashtiradigan jihat - matn, yozuv, me'yor va ilmiy nomlash o'rtasidagi uzviy bog'liqlikdir. Sharq tilshunosligida ilmiy birliklar ko'pincha muqaddas matn, klassik adabiyot, yozma yodgorlik yoki lug'at materiallari asosida ishlab chiqilgan; shu bois bu an'ana filologik puxtalik va terminologik aniqlikni bir butun holda namoyon etadi.

Metodologiya, metod va metodika o'zaro yaqin, biroq bir-biridan farqli tushunchalardir. Zulxumor Xolmanova metodologiyani ilmiy tadqiqot poydevorini yaratadigan nazariya va prinsiplarga tayanuvchi tizim, metodni esa manbalarni to'plash, tasniflash va tahlil qilish yo'llari majmui sifatida izohlaydi. Shuningdek, u har qanday metod uchun obyektivlik, izchillik, universallik va amaliy soddalik zarurligini ta'kidlaydi. Bu qarash sharq tilshunosligidagi metodologik izlanishlarni baholashda ham muhim mezon bo'lib xizmat qiladi: tarixiy manbaga tayangan har qanday yondashuv o'zining ilmiy ishonchligi, ichki mantiqi va qo'llash imkoniyati bilan o'lchanishi kerak[3].

**Tahlil va natijalar.** Sharq tilshunosligining eng yuksak tarixiy tayanchlaridan biri hind grammatik an'anasidir. Britannica ma'lumotiga ko'ra, Panini miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan bo'lib, uning Ashtadhyayi asari sanskrit grammatikasi va fonetikasi qoidalarini kodifikatsiya qilgan. Yana shu manbada Panini qoidalari zamonaviy nazariy lingvistik nuqtai nazaridan ham nihoyatda nozik va chuqur formal tizim sifatida baholanishi, qadimgi hind fonetika an'anasida esa g'arb fonetika ilmining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aytiladi. Demak, sharq tilshunosligida metodologiyani dastlabki muhim ko'rinishlaridan biri qoidaviylik, tizimlilik, qisqa formulalilik va til materialini maksimal ixcham usulda tasniflashga intilish bo'lgan[4].

Xitoy lingvistik va filologik an'anasida ikki ming yildan ortiq tarixga ega ekanini, bu an'anada e'tibor asosan fonetika, yozuv va leksikografiyaga qaratilganini, grammatik masalalar esa ko'pincha mantiq bilan uzviy bog'liq holda ko'rilganini qayd etadi. Bu ma'lumot shuni ko'rsatadiki, sharq tilshunosligida bir xil metodologiya mavjud bo'lmagan; aksincha, har bir ilmiy maktab o'z tilining tabiati, yozuv tizimi va madaniy ehtiyojidan kelib chiqib, o'ziga xos tadqiq usullarini ishlab chiqqan. Xitoy holatida yozuv va lug'atshunoslik markaziy o'ringa chiqadi, bu esa terminologik tasnif va grafemik madaniyatning ustuvorligini anglatadi[5].

Arab tilshunosligi sharq lingvistik tafakkurida nazariy sistemalilik va terminologik puxta ishlanmaning yorqin namunasi hisoblanadi. Cambridge nashridagi sharhiga ko'ra, arab grammatik an'anasida milodiy VIII asr oxirida al-Xalil ibn Ahmadning leksikografik merosi va Sibavayhning al-Kitab asari bilan yozma shaklda mustahkamlangan; natijada ilmiy taraqqiyot, taksonomiyalar tuzish, terminologiyani sayqallash va nazariy mulohaza yuritish uchun mustahkam asos vujudga kelgan. Cambridge'ning boshqa bobida esa yangi vernakyor shakllar Qur'on tili bilan tafvut qila boshlagach, grammatiklar diglossiya hodisasini formal doirada izohlashga intilgani, Sibavayh arab tili uchun to'liq grammatika yaratgani, unda

ayniqsa ildizlarga asoslangan tahlil va qaramlikka tayanuvchi sintaktik model muhim o'rin tutgani ko'rsatiladi[6]. Arab leksikografiyasi ham terminologik tafakkurning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Cambridge ma'lumotiga ko'ra, al-Xalil ibn Ahmad arab tilining serqatlam leksikasiga tartib bergan va 'ilm al-lughah, ya'ni "til ilmi" sifatidagi leksikografiyaning poydevorini qo'ygan. Bu yerda nazariy grammatika va lug'atshunoslik bir-birini to'ldiradi: biri tuzilmani izohlaydi, ikkinchisi nomlash tizimini tartibga soladi. Sharq tilshunosligida terminologiya aynan shu ikki ustun — grammatik tavsif va lug'aviy sistemalashtirish — negizida mukammallashtirishni ko'rish mumkin[7].

Turkiy sharq tilshunosligida esa Mahmud Koshg'ariy an'anasida alohida ahamiyat kasb etadi. Cambridge'ning Modern Asian Studies jurnalidagi maqolada Diwan lughat al-Turk turkiy tillar lug'ati sifatida tavsiflanib, u turkiy tillar va adabiyotlar, shuningdek, o'sha davr turkiy xalqlarining tarixi, madaniyati va turmushi haqida boy ma'lumot berishi ta'kidlanadi. O'zbek tilshunosligi darsliklarida ham Mahmud Koshg'ariy turkiy tillarni guruhlash, ularning fonetik va leksikogrammatik farqlarini qayd etish bilan qiyosiy-tarixiy qarashlar uchun muhim zamin yaratgani ko'rsatiladi. Demak, turkiy sharq tilshunosligida terminologiya faqat lug'at tuzish vositasi emas, balki qiyoslash, tasniflash va ilmiy xulosaga kelishning metodologik instrumenti ham bo'lgan. Bunga yaqqol misol 1932-yilda tashkil etilgan Turk Til assotsiatsiyasi (Turk Dil Kurumi – TDK) faoliyati bilan bog'liq. Ushbu tashkilot Turkiya Respublikasining dastlabki yillarida davlat miqyosida olib borilgan til siyosati doirasida vujudga kelib, turk tilini zamonaviy fan, texnika va madaniyat ehtiyojlariga moslashtirishni asosiy vazifa qilib oldi. Turk terminologiya maktabining muhim xususiyati shundaki, u termin yaratishni faqat lingvistik jarayon sifatida emas, balki milliy o'zlikni mustahkamlash, madaniy merosni tiklash va zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish vositasi sifatida ham talqin qildi. Shu sababli, ayrim sohalarda xorijiy atamalar to'liq siqib chiqarilmaganligiga qaramay, ular bilan parallel ravishda turkcha variantlar muomalaga kiritildi[8].

Sharq tilshunosligida terminologiyani faqat tayyor atamalar jamlanmasi sifatida tushunish yetarli emas. Aslida u bilimni tashkil etish, obyektini tasniflash va tahlil yo'nalishini belgilash vositasidir. Arab an'anasida terminologiya grammatika, leksikografiya va tafsir bilan birga takomillashgani; hind an'anasida qoidaviy ifoda ilmiy kategoriyalarni ixcham belgilab bergani; xitoy an'anasida esa yozuv va lug'atshunoslikning markaziy o'ringa chiqishi buni ko'rsatadi. Shunday ekan, terminologiya sharq tilshunosligida "natija" emas, balki ilmiy tafakkurning ichki mexanizmi sifatida talqin qilinishi lozim[9].

Sharq terminologiyasi va uning maktablari haqida so'z yuritir ekanmiz, bevosita O'rta Osiyo mamlakatlari haqida to'xtalishni lozim deb topdik. Tojikistonda terminlarni tadqiq etish XX asrning 30-yillarida, Butunittifoq terminologiya markazi – SSSR fanlar akademiyasi huzuridagi ilmiyotexnik terminologiya qo'mitasi (KNNT) tashkil etilgan davrda boshlangan. Biroq terminologiyani ko'plab jihatlarida dastlabki bosqichda bo'lib, ularning yakuniy shakllanishi faqat o'tgan asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Shuni alohida ta'kidlash kerak deb o'ylayman, sovet terminologiyasida o'tgan asrning ikkinchi yarmigacha "termin: tushunchasi uchun aniq atama mavjud bo'lmagan va uning o'rnida "professionalism" atamasi qo'llanilgan. XX asrning o'rtalarida tilshunoslik fanida termin nazariyasining rivojlanishi natijasida "termin" atamasi ilmiy muomalaga qayta kiritildi va keyinchalik aynan shu birlik tojik hamda ingliz terminologiyasida "termin" va "professionalism" tushunchalarini farqlash uchun asos bo'la oldi. 1970-yillarning boshlaridan boshlab terminologik

tadqiqotlarning jadal rivojlanishi keyinchalik tojik terminologiyasining eng muhim muammolarini ishab chiqish uchun mustahkam zamin yaratdi. Ta'kidlash lozimki, tojik terminologiyasi muammolarini tadqiq etishda sovet fanida, avvalo rus tilshunoslik maktabida terminologik tadqiqotlarning shakllanish jarayoni muhim rol o'ynagan [10].

Bizning fikrimizcha, bugungi sharqshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri tarixiy terminlarni zamonaviy ilmiy muomalaga mos ravishda talqin qilish masalasidir. Chunki ko'plab klassik manbalarda uchraydigan terminlar hozirgi ilmiy adabiyotda izohsiz qo'llanilganda, ularning mazmun doirasi torayishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi ehtimoli mavjud. Shu bois sharq tilshunosligida terminologik izchillikni ta'minlash, tarixiy atamalarni qayta sharhlash va ularni ko'p tilli ilmiy muhitga moslashtirish strategik vazifa sifatida qaralishi lozim. Bu masala, ayniqsa, o'zbek sharqshunosligi uchun g'oyat muhimdir.

Bundan tashqari, sharq tilshunosligi ko'p tillilik va ko'p sivilizatsiyalilik asosida shakllangani bilan boshqa ko'plab ilmiy an'analardan farq qiladi. Arab, fors, turkiy, hind va xitoy ilmiy tajribalarining bir maydonda kesishishi terminologik

tafakkurning boyishi va metodologik xilma-xillikning kengayishiga xizmat qilgan. Shuning uchun sharq tilshunosligi bir til yoki bir madaniyat doirasida qolib ketmaydi; u sivilizatsiyalararo ilmiy muloqot maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Bizningcha, aynan mana shu jihat uni bugungi global lingvistika uchun ham alohida qimmatli qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Bizningcha, sharq tilshunosligining ilmiy salohiyatini to'liq anglash uchun terminologiya va metodologiyani bir-biridan ajratib emas, balki yaxlit tizim sifatida o'rganish zarur. Chunki sharq ilmiy an'anasida til hodisalarini nomlash, tasniflash va tavsiflash jarayonlari o'zaro chambarchas bog'langan holda shakllangan. Shuning uchun terminologiya bu yerda faqat maxsus birliklar majmui emas, balki ilmiy tafakkurni tartibga soluvchi va bilim ishlab chiqarishni boshqaruvchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan sharq tilshunosligi merosini zamonaviy lingvistik metodologiya bilan integratsiya qilish nafaqat tarixiy ilmiy tajribani qayta tiklaydi, balki bugungi tadqiqotlar uchun ham yangi nazariy va amaliy imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

#### ADABIYOTLAR

1. <https://www.britannica.com/science/linguistics>. Date of access 22.03.2026
2. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
3. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi: darslik. – Toshkent, 2020.
4. Basciano B. Gatti F. Corpus-based research on Chinese language and linguistics. – 2020.
5. Owens J. Arabic linguistics: overview and history. Cambridge University Press.
6. Carter M.G. Arabic lexicography // Religion, learning and science in the Abbasid period. Cambridge University Press, 1990.
7. Dogan A. Her Yonuyle Dil: Ana Çizgileriyle Dilbilim. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2009.
8. Джаматов С.С. Становление и развитие лингвистической терминологии Таджикского и английского языков. – док. филол наук (автореферат). – Душанбе; 2015.